

## O'ZBEKISTONDA O'SADIGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR HAMDA ULARNING MUHIM XUSUSIYATLARI.

**Muhammadiyeva Nozima Adham qizi**

**Dehqonova Nilufar Turdiali qizi**

**Qilicheva Umida Tuychi qizi**

*Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Institutining Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti  
talabalari (Surxondaryo, Denov)*

**Annotatsiya:** O'zbekistonda o'sadigan dorivor o'simliklarni xalq tabobatida qo'llanilishi, inson organizmida paydo bo'lgan kasalliklarni oldini olishi hamda ularni davolash, shuningdek, dorivor o'simliklar farmatsevtika, parfymeriya sanoatida o'rni beqiyosdir. Bundan tashqari dorivor o'simliklar, ziravor oziq-ovqat sanoatida ham o'rni sezilarli darajada beqiyosdir. Dorivor o'simliklardan farmatsevtikada foydalanish maqsadida O'zbekistonda farmatsevtika zavodlari sonini oshirish hamda kerakli dori vositalarini dorivor o'simliklarimizdan foydalangan holda o'zimiz ishlab chiqarishimiz lozim. Ushbu dorivor o'simliklardan oqilona foydalanish hamda muhofaza qilish, ko'plab navlarini yaratish va oshirish maqsadida plantatsiyalar tashkil etish lozim.

**Kalit so'zlar:** yalpiz, sebarga, arpabodiyon, kashnich, rayhon, isiriq, na'matak, aloe, katarakta, xronik artrit.

O'zbekiston o'simlik dunyosi juda boy va rang-barangdir. Cho'l va dashtlar, tog'lar va adirlar, pasttekisliklar va daryo deltalari yonma-yon joylashib ajoyib manzara hosil qiladi. Bu aql bovar qilmaydigan bo'lib tuyilishi mumkin, ammo aslida Markaziy Osiyoning qo'shni mintaqalari bilan taqqoslaganda, O'zbekistonning tog'laridagi maydon birligiga nisbati bo'yicha o'simliklar soni bir necha baravar ko'p. Mamlakatning boy o'simlik dunyosida olti mingdan ortiq turli xil o'simliklar mavjud bo'lib, ular orasida dorivor o'simliklar ham bor. Bunday o'tlar ekologik toza bo'lib oziq-ovqat, aromatik va farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun xomashyo sifatida ishlatiladi.

O'simlik materiallarini kompleks qayta ishlash barcha zamonaviy qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi, uning doirasida ishlab chiqarishning barcha xalqaro sifat standartlariga javob beradigan ekstraksiya, tozalash, konsentratsiya, standartlashtirish amalga oshiriladi.

O'zbekistonda eng kengtarqalgan dorivor o'simlik rayhon (bazilik), kashnich (koriandr), arpabodiyon, yalpiz, sebarga, aloe, nmatak, dorivor valeriana, zig'ir hisoblanadi. Yovvoyi o'simliklarni tekisliklarda va tog'larda topish mumkin, shuningdek, bozorlar va dorixonalarda sotib olish mumkin. Mahalliy aholi bunday o'simliklarning mo'jizaviy kuchi

haqida oldindan bilishadi. Ular, ya'ni dorivor o'simliklar iste'mol qilinadi, ziravor sifatida ovqatlarga qo'shiladi, xushbo'y va vitamanga boy choylar damlanadi, dori-darmon sifatida ishlatiladi, shuningdek kosmetika do'konlarida siz monoo'ylardan, maxsus o'simlik damlamasi, vanna uchun o'simlik preparatlari, turli xil foydali qo'shimchalar, efir moylari va boshqalardan xarid qilish mumkin. Har bir mahsulot tarkibida tabiiy minerallar, vitaminlar, har xil efirlar, xushbo'y hid beruvchi moddalar va biologik faol moddalar mavjud.

Bugungi kunda dorivor o'simliklarga bo'lgan qiziqish tobora ortib botmoqda, butun dunyo pandemiyasida insonlar sog'lig'iga alohida e'tibor berish, salomatlik sirlaridan xabardorligi ortishi, yoshlari ancha katta bo'lgan va surunkali kasalliklarga chalingan insonlar immun tizimini faollashtirish uchun tabiiy vositalarni afzal ko'rishi, tabiiy vositalarning mutloq zararsizligi va foydasi ushbu sohada ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalar hajmining va xalqaro bozorlardagi dorivor o'simliklarga bo'lgan talabning keskin ortishiga sabab bo'ldi. Jumladan, 2020-yil dunyo mamlakatlarida dorivor o'simliklar asosidagi vositalar aylanmasi 100,9 mlrd dollarni tashkil ergan bo'lsa, yillik 7,2% dan iborat bo'lgan. O'zbekiston tabiiy va geografik jihatdan dorivor o'simliklarga boy hudud hisoblanab, respublikada tabiiy holda mavjud 4500 turga yaqin yuksak o'simliklarning 1200 ga yaqini dorivorlik xususiyatga ega.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda dorivor va ziravor o'simliklarni rivojlantirishga, xususan tabiiy boyliklardan samarali va unumli foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4670-son qarori sohani tubdan rivojlanishining huquqiy asoslarini yaratib berdi. Ushbu qarordagi vazifalarni amalga oshirish natijasida dorivor o'simliklarni nafaqat tabiatda yovvoyi holda terib olish, balki madaniy holda plantatsiya usulida ko'paytirish va qayta ishlashni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi fermerlar va tadbirkorlar soni ham sezilarli darajada ortib bormoqda.

O'tgan asr mobaynida 9ta dorivor o'simlik yetishtirish klasterlari tashkil etilib, ular tomonidan moychechak, kovrak, limono't, qalampir, yalpiz, qizilmiya, za'faron va boshqa dorivor o'simliklar yetishtirilmoqda. Ularning foydali natijasida o'tgan 2021-yilda 4 ta xorijiy davlatga 1,7 mln AQSH dollar qiymatidagi dorivor o'simliklar xomashyosi va qayta ishlangan mahsulotlari eksport qilindi.

Bugun sohaga e'tibor berishning ortishi hamda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish natijasida respublikadan 100 dan ortiq turdagi dorivor o'simliklarga rasmiy tibbiyotda foydalanishga ruxsat berilgan bo'lib, ushbu dorivor o'simliklarning asosiy qismi tabiiy holda o'suvchi o'simliklar tashkil etadi. Ushbu tabiiy holda o'suvchi o'simliklarning xomashyo zahirasi chegaralangan bo'lib, ularni muhofaza qilish, bioekologik xususiyatlarini

o'rganish, xomashyo zahirasidan to'g'ri foydalanish va ko'paytirishning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biridir. Shuning uchun, O'zbekistonda farmatsevtika sanoatining ehtiyojlarini dorivor o'simliklar xomashyosi bilan ta'minlash, mahalliy florani yangi introduntsent o'simlik turlari bilan boyitish va ularni yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqishni taqazo etmoqda. Xususan 2020-yil boshida respublikaning barcha hududlarida jami 11,5 ming yer maydonida 27 turdagi dorivor o'simliklar plantatsiyalari mavjud bo'lgan bo'lsa, 2021-yil davomida dorivor o'simliklar plantatsiyalari 162 ta subyektlar tomonidan 15,8 ming ga yetkazilib, ichki va tashqi bozorlarda xaridorgir bo'lgan 45 turdagi dorivor va ziravor o'simliklarning 17,3 ming tonna xomashyosi yetishtirildi.

Dorivor o'simliklar madaniy plantatsiyalarining kengayib borishi va ishlab chiqarish hajmlarining ortishi bilan birgalikda sohaning eksport salohiyati kuchaytirilmoqda. 2020-yil yakunida 29 ta xorijiy davlatga 16,0 ming tonnadan ortiq 50,0 mln AQSH dollari qiymatidagi dorivor o'simlik xomashyosi va qayta ishlangan mahsulotlari eksport qilingan bo'lsa, 2021-yil yakuni bilan bu ko'rsatkichda o'sish kuzatilib, dunyoning 37 ta davlatlariga 55 mln dollar qiymatidagi mahsulotlar eksporti amalga oshiriladi. Eksport geografiyasining AQSH va Yevropa davlatlari hisobiga ortib borishi sohaning imkoniyati katta ekanligidan dalolatdir. Shuningdek, faol qo'llaniladigan dorivor o'simliklar madaniy plantatsiyalarini yaratish uchun birlamchi urug'chilikni yo'lga qo'yish va onalik ko'chatzorlarini tashkil etish sohaning tub ildizi bo'lib, bugungi kunda 16 ta subyektlar tomonidan 22 turdagi dorivor va ziravor o'simliklar urug' va ko'chatlari yetishtirimoqda.

Aytish joizki, sohaning rivojlanib borishi barobarida aholining tabiiy dori vositalariga qiziqishi va iste'moli ko'payib, xabardorligi ortib bormoqda. Bu boradagi ishlarni yanada kuchaytirib, aholining nafaqat iste'mol madaniyatini oshirish, balki o'z tomorqalarida dorivor o'simliklar yetishtirishga jalb etish, "bir mahalla - bir mahsulot" tamoyili asosida klasterlar va eksport qiluvchilar hamkorligida dorivor o'simliklarni ekish, birlamchi qayta ishlab, ichki va tashqi bozorlarga yo'naltirish orqali o'z-o'zini band qilish, aholi daromadini ko'paytirish lozim.

Shunday o'simliklardan biri ham dorivor, ham ziravor bo'lgan oziq-ovqat, farmatsevtika va parfymeriya sanoati uchun qimmatbaho xomashyo hisoblangan "ziravorlar sultoni" nomi bilan mashhur bo'lgan o'simlik - za'faron bugungi kunda dunyodagi eng qimmat o'simlik hisoblanadi. Za'faron O'rta yer dengizi, Yaqin Sharq, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlarida, jumladan Eron, Hindiston, Turkiya, Gretsiya, Italiya, Pokiston, AQSH, Ozarbayjon, Rossiya, shuningdek, bugungi kunda O'zbekiston hududlarida ham katta plantatsiyalarda yetishtirilmoqda. Ushbu o'simlik balandligi 10-30 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik bo'lib, ildizi 2-3 sm, barglari tik, bigizsimon ko'rinishida, gullari zich

to'plamda joylashadi. O'simlikda to'p barglar gullash davridan 10-15 kun oldin paydo bo'lib, oktyabr oyining oxiri va noyabr oyining birinchi yarmida gullaydi. Gul barglarining ichida changchilar - qizil, urug'chilar - to'q sariq rangda bo'ladi. Urug' hosil qilmasligi sababli vegetativ usul bilan (piyozboshchalar orqali) ko'paytiriladi.

Rayhon (bazilik) - yoqimli hid beruvchi o'simlik bo'lib, u talabchan emas va deyarli har bir uyda o'sadi. Dunyo bo'ylab bu o'simlik bazilik sifatida tanilgan, ammo O'zbekistonda bu rayhon deb nomlanadi. Rayhon tabiiy antibiotik bo'lib, isitma tushirish va bakteriyalarga qarshi kurashuvchi vosita sifatida ishlatiladi. Qadim zamonlardan beri turli patogenlar keltirib chiqaradigan shamollashni davolashda foydalanilgan. Ushbu o'simlik tarkibidagi moddalar mushaklarning og'rig'ini kamaytiradi, yallig'lanishni oldini oladi, balg'amni bronxlar va o'pkadan olib tashlaydi va yo'tal va burunning oqishi bilan kurashadi. Bundan tashqari, rayhon parfyumeriya va efir moylarini ishlab chiqarishda faol qo'llaniladi. Rayhonning bir nechta turlari mavjud va ularning har biri o'ziga xos ta'mga ega: qizilmiya, limonli, chinnigulli, keng bargli.

Arpabodiyon - mevalari juda foydali. Uning tarkibida 6% gacha efir moyi, 8-28,4% yog' va oqsil, saratonga qarshi vosita - anetol, S vitamini, qondagi xolesterin kamaytiradigan oziq to'qimalar kabi kuchli moddalar mavjud. Bundan tashqari, arpabodiyon stressni kamaytiradi, asab va ovqat hazm qilish tizimlarini tinchlantiradi va shamollash, stomatit va faringit bilan muvaffaqiyatli kurashadi. Arpabodiyon deyarli hech qanday qarshi ko'rsatmalarga ega emas, shuning uchun u yosh bolalar va homilador ayollarga berladigan ovqatga bimalol qo'shiladi. Arpabodiyon mevasidan tayyorlangan damlama me'da-ichak kasalliklarini davolashda hamda ishtaha ochuvchi, balg'am ko'chiuvchi, yel, o't va siydik haydvchi, terlatuvchi hamda yengil surgi sifatida xalq tabobatida qadimdan ishlatilib kelinadi. Uning mevasidan olingan moy sovun tayyorlashda ham keng ishlatiladi.

Isiriq bo'yi 30-60 sm keladigan ko'p yillik dorivor o'simlik hisoblanadi. Dasht va vodiylarda o'sadi. Isiriqning dorivorlik xususiyati ayniqsa, o'simlikning meva bergan davrida yuqori bo'ladi. Uning poya va urug'idan asabni tinchlantiruvchi vosita sifatida foydalanish mumkin. Qurtilgan isiriq kuydirib, biroz hidlansa bosh og'rig'i yo'qoladi, urug'ining qaynatmasi nafas qisishida davo hisoblanadi. O'simlikning qaynatmasi bilan yuz yuvilganda ko'z kasalligi - kataraktani tuzalishiga yordam beradi. Isiriqning dorivor preparatlari uxlatuvchi ta'sirga ham ega. Isiriq tutuni ea uy-joylarni dezinfeksiya qilish bilan birga, xona havosini tozalaydi, kasalliklarning keng tarqalishining oldini oladi.

Xulosa: Yuqorida aytib o'tganimizdek O'zbekiston o'simliklarga boy hisoblanadi. Shuningdek, ular orasida dorivor o'simliklar ham ma'lum qismini tashkil etadi. Ushbu dorivor o'simliklarning har birining o'z o'rne, hamda, o'ziga xos muhim xususiyatlari mavjud. Dorivor o'simliklar o'z navbatida organizmda immun tizim hosil qilish, organizmni

tabiiy holda davolash, shuningdek kosmetologiya sohasida ham zarur hisoblanadi. Biz manashu tabiyat inom etgan o'simliklardan o'z o'rnida keragicha oqilona foydalanishimiz zarur. O'simliklarning ma'lum zaxirasi bor. Ammo, bu zaxira kuni kelib tugab qolmasligi, kelgusi avlodlarga qadar yetib borishi uchun biz ularni muhofaza qilishimiz, ulardan oqilona foydalanishimiz, sonini ko'paytirishga harakat qilishimiz kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rustamov, B. (2025). TIJORAT BANKLARIDA KREDIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH. Решение социальных проблем в управлении и экономике, 4(2), 50-55.
2. Nurali o'g'li, B. J. (2025). TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 62(5), 3-11.
3. Melibaeva, N. (2025). TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH. Журнал академических исследований нового Узбекистана, 2(2), 96-101.
4. Olimjon o'g'li, O. S., & Xotamov, K. (2024). TIJORAT BANKLARIDA NAQD PULSIZ HISOB-KITOBLAR HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH. Новости образования: исследование в XXI веке, 3(25), 92-96.
5. Zubaydullayeva, Z., & Kaxarova, D. (2024). O 'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishida tijorat banklarining o 'rni. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(5).
6. Xudayarova, X. (2024). Tijorat banklarida raqamli transformatsiya jarayoni, undagi muammolar va ularni yechish yo 'llari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(4).
7. Isroiljonov, S., & Tadjibaeva, D. R. (2021). Study of the energy potential of the heart of college students through the energy potential of the heart. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1083-1088.
8. Таджибаева, Д. Р. (2023). СРАВНЕНИЕ УРОВНЯ ФИЗИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ОРГАНИЗМА МЕСТНЫХ СТУДЕНТОВ ГРАЖДАН УЗБЕКИСТАНА И ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ ГРАЖДАН КЫРГЫЗСТАНА. Universum: химия и биология, (12-1 (114)), 62-66.
9. Таджибаева, Д. (2024). Методы исследования генетики человека. Общество и инновации, 5(8/S), 118-122.

10. Tadjibayeva, D. (2024). INSON TANASINING JISMONIY HOLAT DARAJASI. TAMADDUN NURI JURNALI, 8(59), 305-307.

11. Уринова, Н. М., & Хусеинова, С. Б. (2021). Теоретико-практическая подготовка будущих учителей гуманитарного профиля к социально ориентированной воспитательной работе. Бюллетень науки и практики, 7(5), 434-440.

12. Botirovna, X. S. (2023). "TARBIYA" FANI ORQALI TAYANCH MA'NAVIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA O'QITUVCHI-O'QUVCHILAR HAMKORLIK FAOLIYATI. Science and innovation, 2(Special Issue 12), 567-569.

13. Khamidovna, P. O. (2021). Students develop communication culture pedagogical-psychological factors. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical sciences).

14. Khamidovna, P. O. (2023). Communication Culture of Individuals. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 4(4), 25-28.

15. Khamidovna, P. O. (2021). Methods of teaching young people to communication in pedagogical activity. Journal of Academic Research ISSN, 2181(2020), 26.

16. Khamidovna, P. O., Saidovna, R. D., & Bakhtiyarovna, Y. B. (2021). THE ROLE OF COMMUNICATION AND INDEPENDENT THINKING IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITY. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical sciences).

17. Gulomov, K. K. (2023). PEDIATRIC STROKE DIAGNOSIS: CURRENT CHALLENGES AND FUTURE PERSPECTIVES. Экономика и социум, (12 (115)-1), 256-260.

18. Ogli, N. A. K., & Qahhorali, G. (2024). IMPROVEMENT OF SURGICAL TACTICS AND TREATMENT OF COMBINED INJURIES IN CHILDREN. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 4(5-2), 17-21.

19. Abdumuminov, B. R., Eminov, R. I., & Gulomov, K. K. (2023). UNDERSTANDING FETAL CIRCULATION AND THE TRANSITION TO POSTNATAL CIRCULATION: SHUNTS, PLACENTA, AND CONGENITAL HEART DEFECTS. Экономика и социум, (6-1 (109)), 14-21.

20. Gulomov, K. K., Juraev, S. B., Khamdamov, R. A., Kholikov, B. M., & Meliboev, R. A. (2025, February). IMPROVING THE TREATMENT OF COMPLICATIONS IN ENDOUROLOGICAL OPERATIONS FOR UROLITHIASIS. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY (Vol. 2, No. 1, pp. 31-33).

21. Ugli, G. K. K. (2025, February). SUBACUTE SCLEROSING PANENCEPHALITIS IN KIDS: EEG & MRI TRENDS PRE-AND POST-2023. In

INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY (Vol. 2, No. 1, pp. 28-30).

22. Zokirjonov, D. Z., & G‘ulomov, Q. (2025). THE SIGNIFICANCE OF VITAMIN D LEVELS ON MUSCULOSKELETAL STRENGTH, ATHLETIC PERFORMANCE, AND INJURY PREVENTION. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH, 2(4), 419-430.

23. Ugli, G. K. K. (2025). CHARACTERISTIC EEG PATTERNS IN SSPE AND THEIR CORRELATION WITH CLINICAL STAGES. ORIENTAL JOURNAL OF MEDICINE AND NATURAL SCIENCES, 2(2), 26-30.

24. Zokirjonov, D. Z., & G‘ulomov, Q. (2024). THE SIGNIFICANCE OF VITAMIN D LEVELS ON MUSCULOSKELETAL STRENGTH, ATHLETIC PERFORMANCE AND INJURY PREVENTION. JOURNAL OF MEDICINE AND PHARMACY, 7(12), 16-27.

25. Kholmatov, S., Madaminov, S., Zokirjonov, D., & Sobirova, D. (2024). A COMPREHENSIVE REVIEW OF RADIOTHERAPY AND CHEMOTHERAPY-INDUCED MORPHOLOGICAL SIDE EFFECTS IN BREAST CANCER TREATMENT: STRATEGIES FOR MANAGEMENT AND MITIGATION. Science and innovation, 3(D6), 11-24.

26. Zokirjonov, D., & Alimov, F. (2024). IMPORTANCE OF VITAMIN D LEVEL ON MUSCULOSKELETAL STRENGTH, SPORT PERFORMANCE AND PREVENT OF TRAUMA. Science and innovation, 3(D5), 65-75.

27. EVALUATION OF ANTHROPOMETRIC CHANGES IN DIFFERENT PATHOLOGIES OF THYROID GLAND HORMONE FUNCTIONS

28. Nishonov, Y., Madaminov, S., Abdulhakimov, A., Zokirjonov, D., & Komilov, S. (2023). ASSESSMENT OF ANTHROPOMETRIC CHANGES IN DIFFERENT THYROID GLAND DISEASES. Science and innovation, 2(D3), 73-79.